

## O‘SMIRLARDA ZARARLI ODATLAR VA JINOYAT SODIR ETISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

*Rahimova Sabohat Bahodir qizi*

*O‘zbekiston Milliy Universiteti 2-bosqich magistratura talabasi*

*@sabojonrakhimovagmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida zararli odatlар va jinoyat sodir etish ko‘rsatkichi orasida psixologik bog‘liqlik yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘smirli davri, psixik inqiroz, jinoyat, mahkumlar, alkogolizm, tamaki, kasalliklar, yuqumli kasalliklar.

**Аннотация:** В данной статье освещается актуальная на сегодняшний день связь между вредными привычками и уровнем преступности среди несовершеннолетних.

**Ключевые слова:** Подростковый период, психический кризис, преступность, алкоголизм, табакокурение, хронические заболевания, инфекционные заболевания.

**Annotation:** This article highlights the relationship between harmful habits and crime rates among juveniles of current importance.

**Key words:** Adolescent period, mental crisis, crime, alcoholism, tobacco, chronic diseases, infectious diseases.

O‘smirlilik davri ichki qarama-qarshiliklar davridir. Ma’lumki, o‘smirlilik davri boshqa rivojlanish davrlarining ichida o‘zining fiziologik, psixologik, ijtimoiy jihatdan o‘ta “nozikligi” bilan ajralib turadi. [1] Nosog‘lom xatti-harakatlarga berilish asosan hayotning ushbu davridan boshlanadi. O‘smir o‘zini yetuk insondek ko‘radi, kattalarga imitatsiya qiladi. Buning natijasida o‘smir o‘ziga tamaki, spirtli ba’zi hollarda giyohvand moddalarning mazasini tatib ko‘rishga ruxsat beradi. Bu orqali o‘smir rad etilgan muhabbat, iztiroblari, atrofdagilar, oila a’zolari, tengdoshlari bilan bo‘layotgan nizolarni shu zararli odatlari orqali unutishga harakat qiladi. Aynan mana shu davrda inson irodasi zaiflik qilgani tufayli, keyinchalik shakllanadigan surunkali va yuqumsiz kasalliklar o‘zagi paydo bo‘ladi.[3] O‘smirlar orasida zararli odatlardan eng ommalashgani tamaki chekish bo‘lib, tamaki tarkibidagi zaharli modda nikotin hisoblanadi, u inson o‘pkasi uchun nihoyatda zararlidir. Bundan tashqari, tamaki tutunida oz miqdorda bo‘lsa ham sinil kislotasi, uglerod gazi, uglekislota hamda oltingugurt gazi, ammiak, azot, efir moylari bo‘ladi. Bu moddalar ham kishi organizmiga yomon ta’sir etadi. Ma’lumotlarga qaraganda, o‘pka raki bilan og‘rigan bemorlarning 99 foizini chekuvchilar tashkil etadi. Chekuvchilarning yo‘talishi

ularning o'pkasida tamaki tutuni bilan kirgan zaharli moddalarning borligini ko'rsatuvchi holatdir. Zararli odatlardan yana biri spirtli ichkiliklar iste'mol qilish bo'lib, spirtli ichimlikni iste'mol qilish – salomatlik ofati. Buning eng yomon jihatni uzlusiz ichish natijasida organizm unga o'rganadi, kishi ichmasdan tura olmaydigan bo'lib qoladi.[2] Chekish, ichkilik oqibatida yuzaga keladigan surunkali va yuqumsiz kasalliklar global miqyosda barcha yoshdagi o'limning asosiy sababchisiga aylangan. Jahon Sog'lijni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, alkagol va tamaki mahsulotlari har yili butun dunyo miqyosda 38million insonning o'limiga sababchi bo'lar ekan. Eng achinarlisi shundaki, alkogol, giyohvand moddalar ta'sirida bo'lgan o'smir jinoyat ko'chasiga qanday kirib kelganligini o'zi sezmay qoladi. Bunga dalil sifatida O'zbekistonda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat sodir etilishi bo'yicha statistikani keltirsak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Statistika qo'mitasi xabar berishicha, yurtimizda 2023-yilda qariyb 3600 nafar voyaga yetmaganlar jinoyat sodir etdi. Besh yil davomida bu ko'rsatkich qariyb 4,4 barobarga oshdi. Yil davomida tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o'ldirishga urinish esa 20% foizga ko'paydi. Umumiyy hisobda O'zbekistonda besh yil ichida voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlar 4,4 barobarga oshdi. Bu juda qo'rinchli holatdir. Bu o'tgan yilga nisbatan 15,6 foizga (3112 ta) va 2021-yilga nisbatan (2595) 40 foizga ko'pdir. Bu bo'yicha Prezident huzuridagi Statistika agentligi hisobot e'lon qildi.

2020-yilda 1276 ta (2023-yilga nisbatan 2,8 barobar kam), 2019-yilda esa 818 ta jinoyat qayd etilgan. Shunday qilib, besh yil ichida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 4,4 barobarga oshganini ko'rish mumkin. Ulardan 744 nafari 13–15 yosh, 2855 nafari 16–17 yoshlilardir. Qizlarning ulushi 8,7% — 314 kishini tashkil etdi.

Yuqorida statistikada ko'rsatilgan raqamlar — oddiy raqamlar emas, balki minglab guldek bolalarning kulga aylangan hayoti, porloq kelajagining bevaqt so'nishi, minglab ota-onalarning afsus-nadomatlaridir.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi statistikada keltirilgan barcha jinoyatlar alkogol yoki giyohvand moddalar ta'sirida sodir etilgan deyishdan yiroqman. Bu jinoyatlar sodir etilishida boshqa ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik faktorlar ulushi ham talaygina. Jahon miqyosida voyaga yetmaganlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyat sodir etgan bolalar ichida alkogol, giyovand moddalar ta'siri yuqori bo'lganligi aniqlangan. Jumladan: rus psixologlari Elena A. Balakireva, Yuliya V. Kovalenko, Oksana G. Begina, Evgeniya A. Tempelin, Tatyana A. Kryuchkovalar hamkorligida Belgorod davlat milliy tadqiqot universitetida amalga oshirilgan tadqiqot bunga yaqqol na'munadir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi voyaga yetmagan mahkumlar o'rtasida yomon odatlarning tarqalishini baholash va ulardan foydalanish sabablari va giyohvandlik

oqibatlarini aniqlash uchun amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqot Rossiyaning Federal davlat sog‘liqni saqlash muassasasida o‘tkazildi. Tadqiqot guruhi 14 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan 106 nafar o‘smirni o‘z ichiga oldi. Namuna tanlash ko‘p bosqichli namuna olish usuliga asoslangan. Tadqiqot vositasi so‘rovnama bo‘lib, o‘rganilayotgan aholi soniga ko‘ra o‘zgarishlar kiritildi, u o‘lchanayotgan kontseptsiyaning barcha muhim jihatlarini qamrab oldi. Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun SPSS dasturi, 16-versiyasidan foydalanilgan.[5]

Natijalar shuni ko‘rsatdiki: 106 nafar mahkumdan jami 92 nafari yomon odatlarga ega. Giyohvand moddalarni 30 nafar o‘smir qabul qilgan, 72 nafar o‘smir spirtli ichimliklar iste’mol qilgan, 9 nafar o‘smir chekuvchi bo‘lgan. Psixoaktiv moddalarni qabul qilgan o‘n nafar o‘smir narkologiya ro‘yxatiga olingan. Yigirma nafar mahkum psixiatrlar tomonidan davolangan. Turli xil psixofaol moddalarni iste’mol qilgan mahkulmlarning aksariyati o‘rganishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirgan, 17 nafar o‘smirning yaqin qarindoshlari ya’ni ota-onasi, bobo-buvilari alkogolizm va giyohvandlikka ruju qo‘yishgan ekan.[5]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, o‘smirlarda biz ahamiyat bermagan dastlabki asotsial xatti-harakatlar ularning fojeasiga aylanishi mumkin. Bunday holatlar sodir bo‘lmasligi uchun farzandlarimizda salomatlikka bo‘lgan sog‘lom munosabatni shakllantirishimiz zarur. Bu tizimni joriy etish uchun oila, istalgan turdagि ta’lim muassasalari hamda davlat o‘rtasidagi murakkab, tizimli hamkorlik talab etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. G’oziyev. E “Ontogenet psixologiyasi” – T; NIF MSH-2020.
2. Abdulazizova. N “ O‘quvchilarda zarali odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishda bo‘s sh vaqtlarini tashkil etish omillari”
3. Rahimova. S “ O‘smirlilik davrida salomatlikni saqlash muammosi”
4. Qodirova M. (2020). Voyaga yetmagan o‘smirlar xulq-atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. JSPI.Arxiv.
5. Elena A. Balakireva, Yuliya V. Kovalenko, Oksana G. Begina, Evgeniya A. Tempelin, Tatyana A. Kryuchkova “ Prevalence of bad habits among Juvenile convicts”